


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI MALAKASINI
OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
hududiy xay‘at raisi

M.T. Xakimova 
« 5 » 03 2025 y.



« TASDIQLAYMAN »

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori

L.X. Musadjanova
« 4 » 03 2025 y.



Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

**“MAKTABGACHA TA‘LIM VA TA‘LIM MUASSASALARI
HAMSHIRASI**

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlari uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

1.Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrda “Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5198 –sonli Farmoni va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me’yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrugi ijrosini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son «Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi va 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son «Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundagi 407-son «Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sog‘lom ovqatlanishini tashkil etish, yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi hamda ovqatdan zaharlanishlarning oldini olish choralari bo‘yicha San Qva N № 0016-21 “O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar” ishlab chiqildi va dasturga kiritildi.

JSST va YUNISEF tomonidan tavsiya etilgan bolalarga universal-progressiv modeli bo‘yicha xizmat ko‘rsatish modulidan foydalanildi.

Dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. O‘quv dasturi “Maktabgacha ta’lim va ta’lim muassasalari hamshirasi” yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. "Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalari hamshirasi" har tomonlama yetuk, kasbiy rivojlantirish moduli va mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, "Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalari hamshirasi" fanidan yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- Bolalar organizmining rivojlanish xususiyatlarini, bolalar bilan o'zaro muloqot turlari va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini.
- bolalarning o'sish va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni;
- bola rivojlanishining qonuniyatlari va xususiyatlari;
- binoning sanitar holatini maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti joyini nazorat qilish;
- bolalarning vaznini, antropometrik o'lchovlarini belgilash;
- bolalarni tibbiy kurikdan o'tkazishga tayyorlash tibbiyot birlashmasi tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan yilda bir marotaba chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini tibbiy ko'rik natijalari asosida shifokor tomonidan tarbiyalanuvchi va o'quvchilarni salomatlik guruhlariga taqsimlangan holda ushbu guruhlarga mos bo'lgan sog'lomlashtirish tadbirlarini belgilab,;
- dispanser nazoratiga olingan bemor tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning sog'lomlashtirilishida hududdagi barcha davolash-profilaktika muassasalari, shifoxona va sanatoriyalar imkoniyatlaridan to'liq foydalanish va ushbu tadbirlarga ota-onalarning faol jalb qilinishini tashkil etish;
- tibbiy ko'rik natijalariga asoslangan holda, tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning sog'lom bo'lishlari, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun salomatlik yo'nalishlarida tavsiyalar berish, kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli choralar ko'rilishini ta'minlash;
- maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning salomatlik holati ustidan muntazam nazorat o'tatish, uning o'zgarish dinamikasini kuzatib borish, ularning kun tartibi va aqliy hamda jismoniy mashg'ulotlarining tibbiy nazoratini olib borish;
- maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida bemor tarbiyalanuvchi va o'quvchilarni ambulator qabulini tashkil etish va tibbiy yordamga muhtoj bo'lganlarni aniqlab, ularga tibbiy yordam ko'rsatish choralari ko'rish;
- umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya bo'yicha amaliy imtihon o'tkazish jarayonida tibbiyot hamshiralarning ishtirok etishi va zarur hollarda tez tibbiy yordam ko'rsatishini tashkil etish;
- tarbiyalanuvchi va o'quvchilarni o'sishi va rivojlanish dinamikasi, davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari olib borilishi va ularning samarasini reja asosida monitoring qilib borish vazifalari yuklatilsin

- 15-17 yoshqagi o`smir qizlarni tibbiy ko`rigi va o`rtasida yilda 2 marotaba bolalar genikologi bilan birhalikda UTT ko`rigidan sifatli o`z vaqtida o`tkazish :
- Bog`cha va maktablarda bolalarini Sanitariya epidimiyalogiya hodimlari tomonidan bolalardan gijja tuhumiga tahlil olinadi va aniqlangan gijja turiga qarab sog`lomlashtiriladi.
- bolalar organizmining yoshiga nisbatan rivojlanishining hususiyatlarini o`rganish;
- bola turmush tarzining ahamiyati, uni qo`llab-quvvatlash tushuntirish;
- bolalarda ijtimoiy–ruhiy rivojlanish muammolari, shart-sharoitlarni hisobga olgan holda hamshiralik faoliyatini amalga oshirish;
- bolada nutq rivojlanishining kechikishini aniqlash;
- profilaktik emlashlar o`tkazish va shifokor ko`rsatmalarini amalga oshirish;
- Bog`cha va maktablarda sanitariya rejimini nazorat qilish, bolalarni jismonan chiniqtiruvchi choralar ko`rish;
- bolalarda uchraydigan turli kasalliklarni aniqlash va ularni oldini olish;
- bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklarni aniqlash va profilaktikasi;
- profilaktik emlashlar o`tkazish va shifokor ko`rsatmalarini amalga oshirish
- kasallikdan so`ng kelgan va yuqumli kasallar bilan muloqatda bo`lgan bolalarni ertalab qabul qilish, tana xaroratini o`lchash va boshqalar.
- joriy dezinfeksiyani o`tkazishni tashkil qilish;
- guruh tarbiyachilari tomonidan olib boriladigan bolalarning kundalik ertalabki qabulini nazorat qilish;
- bolalar salomatligi va jismoniy tarbiya masalalariga bag`ishlangan ota-onalar xamda pedagogik kengashlarda qatnashish;
- dori-darmonlar, bakteritsid preparatlar, dezinfeksiyalovchi vositalar, tibbiy asbob-uskunalar va asbob-uskunalar olish uchun talabnoma yozish;
- maktabgacha ta`lim tashkiloti xodimlari va ota-onalar o`rtasida sanitar-tarbiyaviy ish olib borish;
- maktabgacha ta`lim tashkiloti xodimlarining tibbiy ko`rikdan o`z vaktida o`tishini nazorat qilish;
- har oyda ma`muriyat bilan birgalikda maktabgacha ta`lim tashkilotida bolalarning kasallanishining sabablarini o`rganib chiqish va ushbu sabablarni bartaraf etish bo`yicha takliflar kiritish sog`lom turmush tarzini tag`ib etish;
- mintaqadagi epidemiologik vaziyat bilan o`z vaqtida tanishish maqsadida yaqin poliklinika bilan muntazam aloqada bo`lish;
- tayyor oziq-ovqat mahsulotlari (pishiriqlar) sifatini, mahsulotning tabiiy standartlariga mosligini nazorat qilish, ratsionning kimyoviy tarkibini va kaloriyasini muntazam ravishda hisoblab chikish (bayonnomaga muvofiq).
- kundalik taomlarni guruhlar bo`yicha tarqatishda ishtirok etish; oziq-ovqat mahsulotlarini guruhlarga ajratish jadvaliga muvofiqligini nazorat qilish, taomnomadagi tarkibni tekshirish;
- bolalar guruhlarida kun tartibidagi ovqatlanishni o`z vaqtida bajarilishini nazorat qilish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha bog'cha va maktab muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini tasdiqlovchi xujjati bo'lgan feldsher, akusherka va hamshiralar uchun mo'ljallangan.

o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;

- o'rta tibbiyot xodimining xuquqiy ma'suliyatlari, bola xuquqlari, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni o'rganishni;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;
- maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash tizimidagi amaldagi va bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarini;
- tarbiyalanuvchilar sog'ligini saqlash va ularning ijtimoiy muhofazasini;
- odob-axloq jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yongin xavfsizligi qoidalarini, bolalar xayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.
- bolalarni jismoniy chiniqtirish usullarini;
- bolalar uchun oziq-ovqatni tashkil etishga quyiladigan talablarni;
- shikastlangan bolalarga birinchi yordam ko'rsatishning barcha usullarini;
- bolalar xayoti va sog'ligiga taxdid soladigan o'ta og'ir vaziyatlarda tartib qoidalarini;
- immunoprofilaktikaning mazmuni, maqsadi va turlarini bilishi va bolada emlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etishi.
- emlash vositalarini saqlash va ishlatishni;
- emlash ishlari bo'yicha zaruriy hujjatlarni to'g'ri yuritishni.;
- emlashdan keyingi reaksiyalar va asoratlarni qayd etishni;
- emlashdan keyingi reaksiyalarda tez tibbiy yordam ko'rsatishni;
- teri ustiga, teri ichiga, teri ostiga vaksinatsiya qilish qoidalarini;
- vaksinada ishlatilgan shpritslarni zararsizlantirishni;
- zararsizlantiruvchi vositalarni tayyorlashni;
- vaksinalarni saqlashda sovuqlik zanjiriga e'tiborli bo'lishni.

1.5. Dasturning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 30-iyuldagi 4676-IV-son qarori ijrosini taminlash hamda maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarni tarbiyalanuvchi va o'quvchilarining salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, ular o'rtasida kasalliklarning oldini olish, ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya va profilaktik yordamning sifati va samaradorligini oshirish hamda ushbu tashkilotlarda sanitariya-gigiyena me'yorlarga mos keladigan shart-sharoitlarni yaratish maqsadida modul tizimi asosida ishlab chiqilgan dasturdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-son "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi № 160 "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyruqi ijrosini ta'minlash doirasida modul tizimi asosida ishlab chiqilgan

dasturdir. O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, shakl va mazmunan bir xil ko'rinishda mutaxassislarni ko'p bosqichli malaka oshirish tizimini yaratish, bunda tayyorlangan kadrlar bog'cha va maktab muassasalaridagi tibbiyot xonalarida to'liq mustaqil ishlay olishi va kasbiy faoliyat davomida malakasining oshib borilishi, bolalarga ish joyi va egallagan lavozimiga mos bo'lgan kerakli malakaliy yordamni ko'rsata oladigan imkoniyatga ega bo'lishi lozim. Davlat dasturining asosiy yo'nalishlari, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit xaftada, 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9⁻⁰⁰ da boshlanib, 13⁻⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalari hamshirasi" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

TA'LIM NATIJALARI

ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:

- o
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun sanitariya-gigiyena talablarini;
- bolalarni jismoniy chiniktirish usullarini;
- bolalar uchun oziq-ovqatni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni;
- shikastlangan bolalarga birinchi yordam kursatishning barcha usullarini;
- bolalar xayoti va sog'lig'iga taxdid soladigan o'ta xavfli vaziyatlarda 1 yordam ko'rsatishni;
- maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash sohasidagi amaldagi va bolalar xukuklarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarini;
- tarbiyalanuvchilar sog'ligini saqlash va ularning ijtimoiy muhofazasini;
- edob-axloq jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yongin xavfsizligi koidalari, bolalar xayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish yo'riqnomasini.
- maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida tibbiy ko'riklarni tashkil etish va uni so'tkazishni;
- bolalarda turli kasalliklarni oldini olishda bog'cha va maktab hamshirasining vazifasini;

t

e

z

q

- bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar va ularni oldini olish chora-tadbirlarini;
- yuqumli kasalliklarni oldini olishni;
- emlash vositalarini saqlash va ishlatishni;
- emlash ishlari bo'yicha zaruriy hujjatlarni to'g'ri yuritishni.;
- emlashdan keyingi reaksiyalar va asoratlarni qayd etishni;
- emlashdan keyingi reaksiyalarda tez tibbiy yordam ko'rsatishni;
- vaksina qilishda dozani aniqlashni o'zlashtirish;
- teri ustiga, teri ichiga, teri ostiga vaksinatsiya qilish qoidalarini;
- vaksinada ishlatilgan shpritslarni zararsizlantirishni;
- zararsizlantiruvchi vositalarni tayyorlashni;
- vaksinalarni saqlashda sovuqlik zanjiriga e'tiborli bo'lishni.

3.0 DASTUR MAZMUNI.

3.1. "Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalari hamshirasi" malaka oshirish kursi o'quv rejasi

1	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashulot	Amaliy mashgulot		
1.0	Kasbiy rivojlanish moduli	32	18	14		
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infeksion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.5	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1	Modul: Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalari hamshirasining ish faoliyati yo'nalishlari.	8	4	4		
2.2	Modul: Maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarni sog'liqni nazorat qilish: profilaktika, bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va dispanserizatsiya	6	2	4		
2.3	Modul: Modul Bolalar salomatligini saqlash va kasalliklarni oldini olish.	24	10	14		

2.4	Modul: Bog'cha va maktab muassasalari bolalar orasida uchraydigan yuqumli kasalliklar va ularni oldini olish.	18	8	10		
2.5	Modul: Zamonaviy maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni oqilona ovqatlantirishga bo'lgan yangicha yondoshuvlar.	24	10	14		
2.6	Modul: Zamonaviy maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida jihozlarni tanlash, joylashtirishni salomatlikka ta'siri. Bolalar o'yinchoqlarini aqliy rivojlanishiga ta'siri va zamonaviy bolalar kiyimlariga bo'lgan gigiyenik talablar.	12	4	8		
2.7	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	12	6	6		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
4.0	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	62	74	4	4

“Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalari hamshirasi” malaka oshirish kursi o'quv modullarining mazmuni

Modul1.1.Modul.O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to'g'risi”dagi hamda “Tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug'urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog'liq islohotlar. Davlat tibbiy sug'urtasining

huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul. Infekcion nazorat.

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish

s
a
b
a
b
l
a

1.4. Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat

Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyanob an'analarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik kuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Bemorning ehtiyojlarini baholash. Shaxsiy chegaralarni hurmat qilish. Fushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: beqonaniylikni yuzatga jallish. Sdavodish inprofidating xususiyatlarida shifoxona ichi

Infekcion Moduli Solg'lim tushuncha tadbirlar shakllanishda e'zomlar tibbiy tushuncha va o'zlikari.

Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalani tamoyillari.

OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari.

Ayarivali holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kivi mlari va ulardan

Sogʻlom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka taʼsiri, toʻgʻri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini toʻgʻri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga

hayot sifati tushunchalarini; salomatlik va sogʻlom turmush tarzining, sportning, shaxsiy gigiyenaning unga taʼsiri, ahamiyatini; sogʻlom turmush tarzining oila aʼzolari salomatligiga taʼsirini; sogʻlom turmush tarzining tarkibiy qismlarini; Oʻzbekiston sh va faoliyatini yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisidagi 214-sonli buyrugʻi va ushbu xonalarning vazifalari toʻgʻrisida malʼlumot berish.

2.1 Modul. Maktabgacha taʼlim va taʼlim muassasalari hamshirasining ish faoliyati yoʻnalishlari

Sogʻliqni saqlash tizimining amaldagi meʼyoriy xujjatlari. Maktabgacha taʼlim va taʼlim muassasalari hamshirasi yuritadigan meʼyoriy hujjatlar va yuritilish tartibi. Bola sogʻligini muhofaza qilish buyicha olib borilayotgan ishlarni samarasini oshirish toʻgʻrisidagi direktiv xujjatlar bilan ishlash.

Maktab va maktabgacha taʼlim muassasalarida faoliyat olib borayotgan oʻrta tibbiyot ton Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi “Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari toʻgʻrisida” gi PF-0

salomatlik va sogʻlom turmush tarzining, sportning, shaxsiy gigiyenaning unga taʼsiri, ahamiyatini; sogʻlom turmush tarzining oila aʼzolari salomatligiga taʼsirini; sogʻlom ovqatlanish va sogʻlom turmush tarzi» xonalarini tashkil etish va faoliyatini yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisidagi 214-sonli buyrugʻi va ushbu xonalarning vazifalari toʻgʻrisida malʼlumot berish.

a

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi “Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari toʻgʻrisida” gi PF-6099-sonli ahamiyati tushintirish.

hayot sifati tushunchalarini; salomatlik va sogʻlom turmush tarzining, sportning, shaxsiy gigiyenaning unga taʼsiri, ahamiyatini; sogʻlom turmush tarzining oila aʼzolari salomatligiga taʼsirini; sogʻlom turmush tarzining tarkibiy qismlarini; Oʻzbekiston tarzi» xonalarini tashkil etish va faoliyatini yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisidagi 214-sonli buyrugʻi va ushbu xonalarning vazifalari toʻgʻrisida malʼlumot berish.

k

i

l

majburiyatlarini takomillashtirish. Tibbiy hujjatlarni yuritish. ,bolalar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, kasalliklar va ularning asoratlarini oldini olish boʻyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2.2 Modul. Maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarni sogʻliqni nazorat qilish: profilaktika, bolalarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazish va dispanserizatsiya

Bolalarda yoshi, yoshiga xos vazn, boʻy indeksini aniqlash. Antropometriya. Oʻshishning bolalarda koʻrsatkichlarini baholash uchun bolaning hozirgi aniq yoshini

v

a

a

bilish. Bolaning tug‘ilganidan boshlab, aniq (to‘liq) yoshi, har bir tekshiruvlar davrida hisoblab borish. Bolaning o‘shishini baholash, bolaning vazni va tana uzunligi yoki bo‘yini o‘lchash va o‘lchov ko‘rsatkichlarini standart ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash. Bolaning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy rivojlanishining monitoringi, tamoyillari. Universal - progressiv modeli bo‘yicha xizmat ko‘rsatish. Bolalar organizmining yoshiga nisbatan o‘zgarishi xususiyatlari.

2.3. Modul. Bolalar salomatligini saqlash va kasalliklarni oldini olish.

Bolalarda nafas olish a‘zolarining kasalliklari. Ta‘rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi va hamshiralik parvarishi. Bronxial astma va o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari, laringit kasalliklarini parvarishlash bo‘yicha maslahat olib borish. Qon yaratish a‘zolari kasalliklarida xavfli omillarini aniqlash va baholash, ularning asoratlarni oldini olish, Bolalarda qon aylanish a‘zolari kasalliklari va tug‘ma yurak nuqsonlari. Etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi va hamshiralik parvarishi. Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklari. Stomatit, gelmintoz kasalliklarini ta‘rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi va hamshiralik parvarishi. Ovqat hazm qilishning o‘tkir buzilishlari, diareya, gastrit, enterokolitlarni ta‘rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi va hamshiralik parvarishi. Eksikoz va toksikozlarda oral regidrotatsion terapiyani o‘tkazish. Qon va qon yaratish a‘zolari kasalliklari. Anemiyada universal-progressiv modeldan foydalanish. Temir moddasi va vitaminlarga boy oziq-ovqatlar iste‘mol qilish. Buyrak va siydik ajratish a‘zolari kasalliklar ta‘rifi, etiologiyasi, klinik belgilari, asosiy tekshiruv usullari, tashxisoti, davosi, hamshiralik parvarishi. Endokrin tizimi a‘zolari kasalliklari. Qandli diabet ta‘rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davosi. Giper va gipoglikemik komalar. Yod moddasi yetishmovchiligida universal-progressiv modeldan foydalanish. Endokrin tizimi a‘zolari kasalliklarida hamshiralik parvarishi.

2.4. Modul: Bog‘cha va maktab muassasalari bolalar orasida uchraydigan yuqumli kasalliklar va ularni oldini olish.

Emlashning (vaksinatsiyaning) ahamiyati. Universal - progressiv reja asosida profilaktik emlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni aniqlash va bartaraf qilish. Immunoprofilaktikaning mazmuni, maqsadi va turlari. Xavfsiz immunizatsiya uchun tavsiyalar. Bolaga yillik profilaktik emlash rejasini tuzish va tibbiy hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish. Hamshira emlangan bolaning onasi bilan suhbat olib borishi. Emlashdan keyingi holatini baholash va nazorat qilishi. Emlashdan keyingi asoratlarni.

Havo-tomchi yuli bilan yuqadigan infeksiyasi (O‘RVI, ko‘k‘yo‘tal, epidemik parotit, difteriya), toshma bilan kechadigan (Qizamiq, qizilcha, skarlatina, suvchechak) kasalliklar. Differensial diagnostikasi. Shoshilinch xabarnoma varaqasini yuritish. Havo tomchi infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni izolyatsiya qilish tartibi, dezinfeksion eritmalar bilan ishlash, muloqatda bo‘lgan xodimlar va bemorlarda observatsiya o‘tkazish, hamshiralik parvarishini olib borish.

Ichak infeksiyasi. Diareya. (Dizenteriya. Salmonellez) Diareya kasalligining kelib chiqish sabablari, kechishi, profilaktikasi. Virusli gepatitlar, ta‘rifi, etiologiyasi, belgilari, diagnostikasi, davolash, profilaktikasi va hamshiralik parvarishi. Silning kechish xususiyatlari. Sil bilan kasallangan bolalarni parvarishlash. Bolalarda hamshiralik tekshiruvlar o‘tkazish, himoya vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, kasalliklarni oldini olishda maslahat va tavsiyalar berish.

2.5. Modul. Zamonaviy maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni oqilona ovqatlantirishga bo'lgan yangicha yondoshuvlar.

Bolalar organizmining normal o'sish va rivojlanishda ratsional ovqatlanishning ahamiyati. Ratsional ovqatlanishning tibbiy asoslari. Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy, biologik va energetik qiymati, aniqlash usullari. Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalarni oziq-ovqat mahsulotlari va ozuqa moddalariga bo'lgan me'yorlari. Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilishda ularning sifatlik belgilari. Kunlik va haftalik taomnoma tuzish, taom tarkibidagi ozuqaviy moddalar va ularning biologik qiymati, aniqlash usullari. Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish va saqlashga qo'yiladigan sanitar gigiyenik talablar. Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxati va saqlash muddatlariga qo'yiladigan sanitar gigiyenik talablar.

Shifobaxsh ichimliklar va ularni tavsiya etish. Dorivor o'simliklar va ulardan tayyorlangan shifobaxsh ichimliklar bilan davolash. (fitoterapiya). Shifobaxsh ichimliklar va ularni turli kasalliklarda tavsiya etish, shifobaxsh sharbatlar, shifobaxsh giyohlardan dori darmonlar tayyorlash hamda foydalanish yo'llari, shifobaxsh giyohlar xamda ularning ishlatilishi.

2.6. Modul: Zamonaviy maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida jihozlarni tanlash, joylashtirishni salomatlikka ta'siri. Bolalar o'yinchoqlarini aqliy rivojlanishiga ta'siri va zamonaviy bolalar kiyimlariga bo'lgan gigiyenik talablar.

Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun turli xil o'lchamlarda bolalar stollari, stul-o'tirg'ichlari, krovatlar. MBMlarda va uy sharoitida foydalanishga tavsiya etiladigan turlari ishlab chiqarilishi. Davlat Standartiga asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jihozlarining guruhlari, stollar stullar bilan birgalikda jamlangan bo'lishi, ular guruhi va rang ko'rsatkichi bir-biriga mos kelishi kerakligi va ularning turli yosh guruhlariga tavsiya etiladigan son ko'rsatkichlari. Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida jihozlarni joylashtirishga bo'lgan gigiyenik talablar. Bolalar kiyimlariga va bolalar o'yinchoqlariga bo'lgan gigenik talablar. Maktabgacha ta'lim va ta'lim muassasalarida bolalar kiyimlariga bo'lgan gigiyenik talablar, bolalar kiyimlariga baho berishda sanitar—gigiyenik ekspertizaga, kiyim tayyorlashga qo'yilgan material, uning ustki qoplama qismidan o'lchamdagi matolar jamlamasining paketi, issiqlik saqlash qatlami va uning ichki qoplama, shuningdek, tayyor kiyim tavsiya qilish, Bolalar kiyimlariga bo'lgan gigenik talablar. Bolalar o'yinchoqlariga bo'lgan gigenik talablar.

2.7 Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish: O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Jarohatlarda, suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam ko'rsatish. Kuyishda birinchi yordam ko'rsatish. Elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam ko'rsatish. Bo'g'ilishda birinchi yordam ko'rsatish. Cho'kishda birinchi yordam ko'rsatish. Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam ko'rsatish. Hasharotlar chaqishi va hayvonlar

tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (SAV) va uni bajarish algoritmi. Elektrotravmalar, bo'g'ilish, cho'kish, mayda narsalarni yutish, hayvonlarni tishlashi va shunga o'xshash baxtsiz hodisalarni oldini olish, Kesilish, tiralish va mayda yaralarda bog'lam qo'yish. Jarohatdan oqayotgan qonni to'xtatish. Yot jism aniqlanganda Geymlix usulidan foydalanish. Shokning oldini olish.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy

Amaliyot bazasi: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi.

4.2. Mashgullotlarni utkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari

Multimediali jamlanma: elektron doska, slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustaxkamlash trening o'kuv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI

Tavsiya etilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"i
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmon va "Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5198 –sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2018 yil 27 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim muassasalari ish faoliyatini tashkil etishga qo'yilgan sanitariya qoida va me'yorlar" № 0355-18 raqamli SanQvaM.
4. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2000 yil 30 iyundagi "Maktabgacha ta'lim muassasalarida oziq-ovqat mahsulotlarini kunlik foydalanish me'yorlari" № 0097-00 raqamli SanQva M.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2015 yil 26 avgustdagi "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi №ZRU 393-sonli Qonunning 5-bob 30,32,33,34,35,36-moddalari
5. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi. G.I.Shayxova tomonidan taxrir qilingan. Toshkent, 2011
7. "Birlamchi tizimda onalar va bolalar bilan ishlash bo'yicha patronaj hamshiralari ishini tashkil etish". 2021 yil
8. E.A.Shomansurova, Ch.D.Bo'tayev, "Oila tibbiyotida xamshiralik ishi". "Yangi asr avlodi". Toshkent – 2008.

9. M.I. Rasulova YuNISEF-2020y
10. JSSTNING “Xavfsiz immunizatsiya” tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma YuNISEF-2014y Umirov S. E.
11. V.I.Luchshev. «Atlas infeksionnyx bolezney» Moskva. 2009 g
12. Uchaykin V.F., Nisevich N.I., Shamsheva O.V. « Infeksionnyye bolezni i vaksinoprofilaktika u detey» uchebnik. -2007 g
13. V.I.Pokrovskiy, S.G.Pak, N.I.Briko, B.K.Danilkin «Infeksionnyye bolezni i epidemiologiya» 2007 g

4.3.3 Internet resurslari:

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.pedagog.uz>

<http://www.tma.uz>

[http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz)

5.YAKUNIY ATTESTASIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O‘zR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugi 3- ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini kayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va kunikmalarini baxolash tugrisidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.